

5. QOSIMOV B. va boshq. Milliyuygʻonishdavri oʻzbek adabiyoti. - Toshkent: Maʼnaviyat, 2004.

JADIDLAR VA TA'LIM TIZIMINING ISLOHOTI

Marqayeva Sevara Otabek qizi,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Sadinov Ma'rufjon Normo'minovich,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maʼrifatparvar jadidlar ona tili, taʼlim rivojiga katta eʼtibor qaratganlar. Zero, ayni jihatlar qoloqlikka barham berishda, millatni yorugʻlikka olib chiqishda, yurt taraqqiyotida ustuvor ahamiyat kasb etgan. Bu maqolada jadidlarning taʼlim sohasini rivojlantirishga asoslangan matbuot ishlari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Jadid, Turkiston, gazeta, taʼlim, “Taraqqiy”, matbuot.

Dastlabki jadid matbuoti 1883-yil Bogʻchasaroyda nashr etilgan I.Gʻaspiralining “Tarjimon” gazetasidir. “Tarjimon” butun turkiy dunyoga yoyilib, Turkistondagi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi maqolalari bilan oʻlkada oʻzlikni anglashni boshlab berdi. 1905-yil oktabrda “Qozon muxbiri”, 1906-yil Ahmad Hodi Maqsudiyning “Yulduz”, Fotih Karimiyning “Vaqt”, Peterburgda “Ulfat” gazetalarini chiqdi. Turkistondagi jadid matbuoti 1905-yildan boshlanadi. Avloniy 1905-17-yillarda Turkistonda 22 gazeta va 8 jurnal nashr etilganiga guvohlik bersa, 1927-yil Ziyosaid 1870-1927-yillarda 45 ta gazeta va 36 nomda jurnal nashr etilganini yozgandi. Yuqoridagi matbuot nashrlarining aksar qismi jadid taraqqiyparvarlari tomonidan chiqarilgan. Turkistondagi ilk milliy gazeta 1906-yil 27-iyun kuni tatar taraqqiyparvari Ismoil Obidiy muharrirligi ostida chop etilgan “Taraqqiy” gazetasi hisoblanadi. Gazeta chiqishi munosabati bilan Ismoilbek Gʻaspirali, Abdulla Toʻqaylardek yirik taraqqiyparvarlar tabrik nomalarini yoʻlladilar, Munavvar qori, Avloniylarning maqolalari bu gazetani xalq oʻrtasida yanada mashhur boʻlishiga yordam berdi.

“Taraqqiy”ning ilk sonida muharrir Ismoil Obidiy oʻzining “Toshkent 14-iyun” maqolasida Turkiston musulmonlariga murojaat qilib, barchani oʻzaro nizolarga chek qoʻyib birlikka chaqiradi. Gazetaning shiori ham maqsaddan kelib chiqqan holda “Najot: maslakda sabot; toʻgʻrilikni ijobat” deb belgilandi. Muallif millatning yorugʻ

jahonda yashab qolish-qolmasligi, uning taraqqiyoti yoxud tanazzuli yolgʻizgina mana shu totuvlikka, millatning ilmu maʼrifatiga bogʻliq deydi. U Rossiya imperiyasida kechayotgan kurashlar va inqilob natijasida joriy etilayotgan demokratik islohotlardan faqatgina maʼrifatli millatlar foydalana olishini uqtiradi. Gazetxonlarga “Taraqqiy”ning chop etilishi uchun ruxsatnomaning olinishi ham aynan hurriyat bergan erkinliklar samarasi boʻldi, deydi. Bu maqola turkistonlik taraqqiyparvarlar tomonidan juda qizigʻin qarshi olindi. Ayniqsa, gazetaning mazkur sonining 2-3 betlarida Munavvar qori Abdurashidxonovning “Bizning jahl, jahli murakkab” maqolasi bosilgan. Bu maqolada ham butun Turkiston xalqlarining anʼanaviy turmush tarzi tahlil etilgan. Unda ayrim illatlarning jamiyat taraqqiyoti uchun gʻov boʻlayotganligi, bularga qarshi kurashga butun millatni jalb etadi. Bu maqola oʻz vaqtida butun Turkiston elining ilgʻor qismini larzaga soldi va hali hamon Munavvarqori gʻoyalaridan, uning aqliy dahosidan namuna boʻlib sevib oʻqiladi.

“Taraqqiy”ning 3-sonida chop etilgan I.Obidiyning “Toshkent 22-iyun” deb nomlangan maqolasida ham muallif ilmu maʼrifatni Turkiston kelajagi uchun yagona najot yoʻli sifatida taʼriflashdan boshlaydi. Biroq, maqola davomida Obidiy rus inqilobi va uning mustamlaka xalqlari foydasi uchun chiqarilayotgan ayrim imtiyozlarini, qonun qarorlarini Turkiston tuprogʻiga ham joriy etish masalalarini muhokama qiladi. U bu muammoni ochiqchasiga koʻtarmaydi, chunki gazetani ochishda siyosiy masalalarga aralashmaslikka xat bergan edi. Shunga qaramay Turkiston xalqining siyosiy madaniyatini oshirish, maʼlum maqsadlar atrofida tashkilotlar atrofida uyushish va siyosiy partiyalar zarurligiga ahamiyat qaratadi. Bu borada turkistonliklarning Yevropa taʼlimini olgan mutaxassislariga, ilmga, tajribali yuristlarga muxtojligiga eʼtibor qaratadi. Shu sonning oʻzida “Qalamkash” imzosi bilan yozilgan “Ul bul narsalar” maqolasida masala yanada oydinlashtiriladi. Yaʼni, inqilob natijasida qoʻrquvga tushib qolgan chor hukumatining siyosiy chekinishlaridan unumli foydalanib qolishga, bu yoʻlda mahalliy kuchlarni siyosiy birlikka chaqiradi. Ayniqsa, gazetaning soʻnggi sonlaridan birida “Umumiy oʻqituv” nomli maqolada muallif Xudoyorxonovning xati bosilgan edi. Unda mahalliy boylarni “Xayriya jamiyati” ochishga, musulmonlarning yetim bolalarini homiylikka olish va ular uchun maktablar ochishga chaqiradi. Umuman, “Taraqqiy” gazetasi Turkistondagi ilk jadid gazetasi boʻlishiga qaramay butun mintaqani jadid gʻoyalari atrofida jipslashtirishga erishdi. Mustamlakachi maʼmurlar gazetani zudlik bilan yopish choralari qidira boshlaydi va koʻp oʻtmay buning uddasidan chiqdilar. Shunga qaramay bu gazeta oʻzbek milliy matbuotining tamal toshi sifatida zalvorli oʻrin egallagan.

1906-yil 6-sentabrida Munavvar qorining “Xurshid” gazetasi, 1907-yil 1-dekabrida Avloniyning “Shuhrat” gazetasi, 1908-yil Ahmadjon Bektemirovning “Osiyo” gazetalari dunyo yuzini koʻrdi. 1909-1913-yillar davomida Rossiya

imperiya-sida mustamlakachi ma'murlar tomonidan deyarli barcha jadid matbuoti nashrlari yopib tashlandi. Jadidlar harakati namoyandalariga qarshi ta'qib avj oldirildi. Bunda eng avvalo, mahalliy konservativ kuchlar, ulamolardan ham foydalanildi. “Qadim” “jadid” muammosi o'ylab topildi va ular o'rtasidagi ko'pdan buyon ma'lum bo'lgan ziddiyatlar ataylab avj oldirildi.

Barcha jadid matbuoti vakillari qatori “Najot” gazetasi ham o'zining har bir sonida ta'lim va tarbiya masalasiga keng o'rin berdi. Jumladan, “Najot”ning birgina 15-sonida Toshkentda o'rta maktablarga kiradigan yordamga muhtoj yoshlar uchun moddiy, ma'naviy yordam berish maqsadida “Guliston” jamiyati tashkil etilganini, Samarqand yoshlarining (jadidlar-muallif) tashabbusi bilan alohida muallim hozirlanib, 40-50 kishi o'qiydigan kechki ta'lim kursi tashkil etilayotgani va unda o'qishga havasmandlarning juda ko'p ekanligini ma'lum qiladi.

Shuningdek, Qo'qonda shaharning bir qancha ochiq fikrli yoshlari yig'ilib 3 may kuni “Hurriyat” nomida yangi nashriyot shirkatini ta'sis etganlari, qo'qonlik Imomnazar qori Ali Nazar o'g'lining Qo'qonda o'zining Misr, Istanbul, Bayrut va tatar nashrlaridan chiqqan kitoblarga boshqa yangi kitoblarni qo'shib, “Zamon” nomli kutubxona ochganini yozadi. Mazkur sonda Kaspiyorti viloyatining Ashxobod shahridan ham ma'lumot beradi. Unda Ashxobodda 200 atrofida musulmon aholisi to'planib, avvalo musulmonlar uchun bir jamiyati xayriya tuzish, shaharda bir qiroatxona (kutubxona) ochish va viloyatda bir turkiy gazeta tashkil etish masalalarini muhokama qilganligi haqida yozadi. Aytish mumkinki, “Najot” o'tgan asrning boshlaridagi Turkistondagi ta'lim va uning o'tkir muammolarini aks ettirgan muhim manbadir. Bu gazeta millat murabbiysi bo'lgan ulug' darg'a Munavvar qorining ilmiy g'oyalari va uning mazkur davrdagi Turkiston ta'limi taraqqiyotidagi xizmatlarini o'rganishda benazir manba hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Turkistonning mustamlaka davrida nashr qilingan jadid matbuoti sahifalari o'lkamiz tarixining ajralmas qismidir. Unda o'z davrida Turkiston mintaqasining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotida kechgan barcha holatlar birday o'z aksini topgan. Ayniqsa, ular Turkistonda ta'lim sohasini rivojlantirish, maktab va madrasalar islohoti haqida keng, bir paytda dolzarb va o'tkir materiallarni berib borganlar. Bu gazetalarning birortasi uzoq vaqt faoliyat ko'rsata olmadi. Garchi shunday bo'lsada, ular qisqa muddatda turkistonliklarning haqiqiy ma'nodagi muhokama minbariga aylanib ulgurar edilar. Ularning sahifalarida Behbudiy, Munavvar qori, Abdurauf Fitrat kabi ko'pgina millatimiz daholarining, buyuk murabbiylarning qarashlari o'z aksini topgani bilan yanada qadrlidir. Ularda yurtning kelajagi, din va qadriyatlar, ayniqsa farzandlar ta'limi, muallim va mudarrislarining saviyasi, kasbiy salohiyati va tarbiya usullari to'g'risidagi ko'plab munozaralar chop etildi. O'sha davrda muharriyotga kelgan turli xabar va maktublar

ham mazkur maqolalarning Turkiston xalqi uchun katta ta’sir kuchiga ega bo‘lganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Taraqqiy” .1906 -yil.
1. Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent - 2016.
2. Sh.R.Xurriyatdan nechuk foydalanamiz. Najot. 1917-yil.
3. И.Гаспринский. Из наследия, Русское мусульманство. – Ставрополь: Таврия, 1991.
4. X.Boltaboyev. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. - Toshkent: Universitet, 1999.

OILA MUQADDASLIGI: JAMIYATNING ASOSIY QADRIYATI

Qobulova Sarvinoz

I. OILA – INSONIY TARBIYANING ILK MAKTABI

Oila inson hayotidagi eng muhim qadriyatlardan biri bo‘lib, uning ma’naviy shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Insonning hayotga bo‘lgan qarashlari, axloqiy tamoyillari, ma’naviy va intellektual rivojlanishi aynan oilada shakllanadi.

1. Oilaning inson hayotidagi o‘rni

Oila nafaqat biologik, balki ijtimoiy va ruhiy jihatdan ham shaxsni shakllantiradi.

Inson dunyoqarashi va axloqiy tamoyillarining asosi bolalikdan oilada shakllanadi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning mas’uliyati muhim o‘rin tutadi.

2. Oila – milliy qadriyatlarni saqlovchi muhit

Har bir millat o‘z oilaviy qadriyatlari bilan ajralib turadi.

Milliy qadriyatlarni yosh avlodga singdirish oila tarbiyasining asosiy vazifalaridan biridir.

Oila orqali urf-odatlar, an’analar, axloqiy tamoyillar saqlanib keladi va kelajak avlodga yetkaziladi.

II. OILAVIY MUHIT VA FARZAND TARBIYASI